



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEK TILLARIDAGI IMO-ISHORALARNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Ro‘ziboyeva Nazira Qarshiboyevna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda o‘zbek va fransuz tillaridagi noverbal muloqotning psixolingvistik parametrlariga qiyosiy tahlil o‘tkazilib, ikki turli madaniyat doirasida imo-ishoralar orqali ifodalanadigan o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanadi. Ayniqsa, imo-ishoralardan foydalanishdagi madaniy xususiyatlar va ularning muloqot jarayoniga ta’siri yoritiladi. Tadqiqotda madaniy omillarning noverbal muloqotga ta’siri va ushbu bilimlarning madaniyatlararo muloqotni yaxshilashdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Natijalar noverbal jihatlarni hisobga olish turli madaniyat vakillari o‘rtasida chuqurroq tushunishni ta’minlashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: imo-ishoralar, psixolingvistika, noverbal muloqot, verbal muloqot, tana tili, kinesika, milliy imo-ishoralar.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕСТОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Рузибоева Назира Каршибоевна

Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель

Аннотация

Исследование психолингвистических параметров невербального общения узбекского и французского языков проводит детальный компаративный анализ, направленный на выявление уникальных и общих черт невербального общения в рамках двух различных культур. Особое внимание уделяется сходствам и различиям в использовании жестов. Изучается, как культурная специфика влияет на невербальное общение, и как эти знания могут быть применены для улучшения межкультурного взаимодействия. Анализ показывает значимость учета невербальных аспектов для глубокого понимания между культурами и успешного межкультурного обмена.

Ключевые слова: жесты, психолингвистика, невербальное общение, вербальное общение, язык тела, кинесика, национальные жесты.

PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF GESTURES IN THE UZBEK LANGUAGE

Ro‘ziboyeva Nazira Qarshiboyevna

Uzbekistan State World Languages University, Lecturer

Abstract

This study conducts a detailed comparative analysis of the psycholinguistic parameters of nonverbal communication in Uzbek and French languages, aiming to identify both common and unique features within two different cultures. Special attention is given to similarities and differences in the use of gestures. The research examines how cultural specificity influences nonverbal communication and how this knowledge can be applied to improve intercultural interaction. The findings highlight the importance of considering nonverbal aspects for achieving deeper understanding between cultures and successful intercultural exchange.

Keywords: gestures, psycholinguistics, nonverbal communication, verbal communication, body language, kinesics, national gestures.

Til fikr va hissiyotlarimizni ifodalovchi, faoliyatimizda qoʻllaniluvchi asosiy omildir zero, qolgan aloqa vositalari koʻlami cheklangandir. Til oʻzgaruvchan hodisa boʻlsada uning ichki obektiv qonunlari rivojlanib boʻladi. U nafaqat insonlar oʻrtasida axborot almashinish, balki axborot ulashuvchi va axborot tinglovchining xohish istagi, bahosi, ruhiy holati va munosabatini ham oʻzida aks ettiradi [2. 255].

Insonning soʻz orqali yoki soʻzsiz (noverbal) tarzda muloqot qilishi uning hissiyoti, fikrlashi va shaxsiy xususiyatlarini namoyon etadi. Bunda nafaqat soʻzlar, balki noverbal aloqa — yaʼni, harakat, mimika, jest, intonatsiya kabi soʻzsiz belgilar ham muhim rol oʻynaydi.

Noverbal signallar orqali inson hissiyotlari, munosabati va ichki holati namoyon boʻladi. Shu bois bu jarayonni psixolingvistik nuqtai nazardan oʻrganish — nutqni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Noverbal muloqotning bu jihati uzoq vaqtdan beri olimlarni qiziqtirib kelgan. Oʻtgan asrda tadqiqotchilar imo-ishoralar insonning shaxsiyati va hissiy holati haqida koʻp maʼlumotlarni ochib berishi mumkinligini aniqlashdi. Hozirgi kunda imo-ishoralar psixologiyasi - bu hamma odamlar uchun tushunarli boʻlgan universal xatti-harakatlarni ham, maʼlum madaniyatlarga xos boʻlgan xususiyatlarni ham oʻrganadigan toʻliq huquqli fandır.

Klassik tadqiqotlar, masalan, A.Pizning "Tana tili" kitobida qoʻl imo-ishoralari aniq nimani anglatishini batafsil tushuntiradi [6.4].

60-yillarning oʻrtalarida eng yirik sotsiologik harakatlardan biri boʻlgan ramziy interaksionizm doirasida, R.Birdwhistel birinchilardan boʻlib tana harakatlari, imo-ishoralari va pozitsiyalarini hisobga olgan holda muloqotni oʻrgangan. U noverbal muloqotni oʻrganish yoʻnalishini yaratdi va uni "kinesika" (qadimgi yunoncha - harakat) deb atadi [7.93].

1970-1980-yillardan boshlab bir qancha tadqiqotchilar nutqga tasodifiy hamroh boʻladigan, noverbal deb ataluvchi qoʻl imo-ishoralari oʻrganishgan. Bu imo-ishora va nutq bir xil kognitiv strukturadan kelib chiqadi va tafakkur bilan mustahkam bogʻlangan [12].

Imo-ishora oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha taʼriflanadi: -Imo-ishora tili nutq tovushlarisiz, imo-ishora bilan fikr anglatishga asoslangan til boʻlib muayyan harakat bilan ishora, shama qilish; Imo - biror narsa bildirish, undash va shu kabilar uchun bosh irgʻatib yoki yuz, koʻz, qosh, qoʻl harakati bilan qilingan ishora, im [9.203].

"Jest" tushunchasi (lotincha gestus - tana harakati) inson tanasining yoki uning biron bir qismining tegishli maʼnoga ega boʻlgan muayyan harakatini anglatadi. Koʻpincha va keng qoʻllaniladigan imo-ishoralar nutq ritmiga, ovozning kuchiga, baʼzi soʻz va iboralarni taʼkidlash va urgʻu berish uchun tana va qoʻllarni parallel ravishda ishlatishni oʻz ichiga oladi.

"Jest" atamasi baʼzan tananing barcha harakatlariga, shu jumladan yuz ifodalari hamda pantomimalarga nisbatan ishlatiladi va qoʻl harakatlari uchun imo-ishora (jestikyulatsiya) tushunchasi qoʻllaniladi [5.250].

Tahlil va natijalar. Suhbat paytida qoʻl imo-ishoralari millatlararo muloqot vositalaridan biri boʻlib, boshqa odamlarni hatto ularning tilini bilmasdan ham tushunishga yordam beradi. Koʻpincha imo-ishoralardan foydalanish ham ehtiyotkorlikni talab etadi, chunki ular turli millat vakillari uchun mutlaqo qarama-qarshi maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Koʻpgina asosiy imo-ishoralar butun dunyoda bir xil ekanligiga ishoniladi. Biroq, oʻziga xoslik "milliy imo-ishoralar" ham mavjud boʻlib bu turli madaniyatlar bir xil tushunchalarni ifodalash uchun turli imo-ishoralarni qoʻllashida namoyon boʻladi.

Muloqot paytida imo-ishoralardan jonli foydalanish nutqning hissiy boyligini oshirishga yordam beradigan va uni unutilmas holga keltiradigan vositadir. Qoʻl harakati yaʼni imo-ishoralar nafaqat aytilgan fikrning mazmunini ifodalashga, balki soʻzlovchining barcha his-tuygʻularini yetkazishga yordam beradi. Bu esa tinglovchilar tomonidan axborotni yaxshiroq idrok etishga yordam beradi. Biroq, haddan ziyod ishlatilgan imo-ishoralar tinglovchilarni aytilayotgan gaplarning mohiyatidan chalgʻitishi mumkin. Haddan tashqari imo-ishoralar vizual idrokni

kuchaytiradi va uzatilgan axborotni tushunishni qiyinlashtiradi. Imo-ishoralarning optimal soni yanada muvozanatli taassurot yaratadi va muloqot samaradorligini oshiradi.

Soʻzga hamroh imo-ishoralalar noverbal ham deb yuritiladi. U soʻzlovchi muhim deb hisoblagan gapning elementi bilan hamohang tarzda namoyon boʻladi. Imo-ishora va soʻz bir vaqtning oʻzida bir xil fikrni aks ettiradi, lekin bir xil jihatlarni ifodalash shart emas. Vizual ma'lumotni yetkazish uchun imo-ishoralardan foydalanish juda keng tarqalgan. Odatda biz biron bir shakl, hajm yoki ob'ektning joylashuvi haqida gapirmoqchi boʻlganimizda ulardan foydalanamiz. Masalan biz, "Koʻzoynaging u yerda" yoki "bu yerda", deydigan boʻlsak bizning soʻzlarimizga joyni koʻrsatuvchi imo-ishora hamrohlik qiladi (koʻpincha koʻrsatkich barmoq orqali). Shunday qilib bizning suhbatdoshimiz koʻrib turgan imo-ishoralari orqali tegishli axborotni sharhlaydi. Bu turli xalqlar va turli yoshdagilar uchun ham deyarli bir xil. Masalan, yosh bolalar ular uchun yangi va ayniqsa murakkab noverbal axborotni agar ularga imo-ishoralalar hamroh boʻlsa yaxshi tushunishadi.

Imo-ishoralarning izchilligini tushunish muhim hisoblanadi. Bu izchillik orqali muloqot qilayotgan odamning pozitsiyasini aniqroq koʻrishga imkon yaratadi. Bizning soʻzlarimizni suhbatdoshimiz qanday qabul qilinayotganligini ya'ni ma'qullash yoki dushmanlik bilan, ochiq yoki yopiq, yoki zerikish bilan tushunishimiz mumkin. Masalan, noverbal muloqot boʻyicha yetakchi mutaxassislaridan biri Stiven Bunard Fransiya prezidentlarining oʻziga xos imo-ishoralari oʻrganar ekan, quyidagi xulosaga keldi: "Fransua Olland va Nikola Sarkozi oʻng qoʻl bilan gapirishga moyil boʻlgan boʻlsa, Emmanuyel Makron chap qoʻl bilan gapiradi: "Oʻng qoʻl ishonitirish uchun ishlatiladi, chap qoʻl esa rahmdillik va samimiyligni ifodalaydi" [7].

Oʻzbek milliy madaniyatida salomlashishning individual ma'nosi oʻziga xos bir xil boʻlishiga qaramay imo-ishoralarning bajarilishi turlicha boʻladi. Unda yosh davri, jinsi, mavqei, ijtimoiy-iqtisodiy holati kabilarni farqlash mumkin.

Katta yoshdagi ayollarni salomlashishi ularning yoshini ulugʻligi, hurmat, ehtirom xususiyatlarini ustunligi bilan farqlanadi. Qari, keksa ayollar ikkala qoʻllarini yuqoriga koʻtarib, qarshisida salomlashmoqchi boʻlgan odamning yelkasiga bir necha marta kaftlarini yengil qoqib soʻrashadi. Lekin salomlashayotgan kishiga nisbatan xatti-harakatlarda qisman oʻzgarishlar boʻlishi mumkin. Agar oʻzi qatori keksa ayollar, kampirar oʻzaro salomlashsa, imo-ishoralalar bir-biriga oʻxshash holda tarorlanadi. Ikkala kampir ham qoʻllarini yuqoriga koʻtaradi. Odatda keksaroq ayol ikkinchi odamning yelkasiga kaftlarini yengil qoqib, boshining yelkasini u tomoni va bu tomoniga burib, salomlashadi. Soʻrashayotgan ikkinchi odam ham xuddi shu harakatlarni ketma-ketlikda bajaradi. Bu harakatlar bir vaqtda soʻzlar bilan ham ifodalanadi. Assalomu-alaykum iborasi: yaxshimisiz, sogʻligʻingiz yaxshimi, xonadonlar tinchmi, bolalar, nevaralar, kelinglar va shu kabilar hammasi batafsil aytib oʻtiladi. Ancha uzoq vaqt soʻrashiladi.

Agar xuddi shu keksa yoshdagi ayol yoshroq oʻgʻil bola, yoki yoshroq erkak kishi bilan salomlashganda xatti-harakatlar qisman oʻzgaradi. Unda ayol bir qoʻli bilan yigitning oʻng yoki chap yelkasiga kaftlari bilan qoqib salomlashishi mumkin. Lekin bu vaqtda erkar kishi yoki yigit oʻng qoʻlini koʻksiga qoʻyib, boshini va yelkasini oldinga egib turadi. Ular keksa insonning soʻzlariga "raxmat", "yaxshi", "ha", "tuzuk" kabi qisqa javoblarni aytishadi [1. B. 10].

Katta yoshdagi erkaklarni salomlashishi ayollardan farqli boʻladi. Keksa yoshdagi erkaklar, chollar gavdalarini oldiga egib, boshlarini pastga-tepaga qimirlatib, yoki silkiib soʻrashadi. Soʻzlari qisqa, loʻndaroq boʻladi. Assalomu alaykum, salomatmisiz, yaxshimisiz kabilar bilan cheklanadi.

Agarda munosabatlari yaqin boʻlgan qarindoshlar, qadirdonlar, hurmatli insonlar boʻlsa, salomlashish imo-ishoralari koʻproq, soʻzlarni ifodalanishi nisbatan uzoqroq boʻladi. Bunday chollarning imo-ishoralari oʻzaro oʻxshash boʻladi. Boshi va gavdalarini oldiga sal egib, ikkala qoʻlini oldinga choʻzib salomlashayotgan odamning oʻng qoʻlini kaftlari orasiga olib soʻrashadi. Salomlashish xatti-harakatini soʻz bilan tasdiqlab gapirganda ayollar kabi uzoq choʻzmaydi. Ular qisqaroq va loʻnda soʻzlar bilan yakunlaydi. "Ahvollar yaxshim", "tinch, omonmisiz" kabilar

aytilishi mumkin.

Chollar yoshroq erkaklar bilan salomlashganda ham qisman o'zgarish kuzatiladi. Unda qari odam faqat bir qo'lini (odatda o'ng qo'lini) oldinga cho'zib salomlashadi. Bu vaqtda yoshroq erkaklar boshi va gavdalarini oldiga egib, ikkala qo'lini cho'zib salomlashayotgan chollarning qo'llarini kaftlari orasiga olib so'rashadi. Bu joyda qariroq yoshdagi odam kamroq gapiradi. "Omon-essonmisan", "yaxshimisan", "tinchmisan" kabi so'zlarni aytishi mumkin. Lekin yoshroq yigitlar, erkaklar nisbatan ko'proq so'zlarni aytib so'rashadi. "Otaxon", "doda", "amaki", kabi so'zlar bilan murojatni boshlaydi. Qari odamni hol-axvolini batafsil so'raydi. Hurmat va ehtirom ko'rsatadi.

Mana shu salomlashish holatiga chuqurroq nazar nashlansa, shaxslarning yosh davriga xos xususiyatlaridan tashqari ijtimoiy, iqtisodiy holati, mavqei, mansabi kabi hususiyatlarini ifodalanishini kuzatish mumkin. Bunda moddiy ta'minoti, mavqei, mansabi kabilarning yuqori bo'lishi "yoshi kattaroq" odamlardagi holat kabi xatti-harakatlari, imo-ishoralari kamroq, kuzatuvchanligi yuqoriroq bo'ladi. Aksincha, kambag'alroq, tobe bo'lgan kishilar "yoshroq erkaklar" kabi mulozamatni imkon qadar yaxshiroq bajaradi.

Lekin barchaga ma'lumki, ma'naviyati yuqori bo'lgan kishi har qanday holatda o'zining samimiyligini yo'qotmaydi. Bunday insonlarning bilimni darajasi, iqtisodiy ta'minoti, mavqei qanday bo'lishidan qat'i nazar insoniylik xususiyati yuqori turadi.

Hozirgi kunda ayniqsa o'smir va o'spirin yoshidagi o'g'il bolalarni salomlashishida juda qiziq holatni kuzatish mumkin. Qalin do'sti yoki yaqin o'rtog'i, sinfdoshi, kursdoshi kabilar bilan o'zaro salomlashganda ular o'ng qo'llari bilan kafti va barmoqlari ishtirokida bir qancha harakatlarni bajarishadi. Qo'llarini mushtlab, qarama-qarshi bir-biri bilan to'qnashtirishadi; mushtlangan qo'llar bilan yuqoridan-pastga tushirib va aksincha, pastdan yuqoriga ko'tarib to'qnashtiradi, bosh barmoq, o'rta barmoq, kaftlarini to'qnashtirib salomlashadi, so'ngida boshlarini oldinga egib peshanasini yon tomonlarini to'qnashtirishadi. Bu xatti-harakatlar do'stlarda o'zaro qadirdonlik, yaqinlik, sog'inch, hurmat kabi xususiyatlarini ustunligini anglatadi. Yana e'tiborli joyi shundaki, bu do'stlarning so'z boyligi juda kam va qisqa. "Salom", "qalaysan", "bormisan" kabi so'zlar xolos [1. B.12].

Shu yoshdagi, ya'ni o'smir, o'spirin yoshdagi qiz boalarda esa juda oddiy holatdagi salomlashishni kuzatish mumkin. Ular o'ng qo'llarini oldinga cho'zgan holda dugonasi yoki do'stini kaftlarini siqib salomlashadi, xolos. Lekin ular ham o'g'il bolalar kabi qisqa so'z bilan ifodalashadi. "Salom", "qalaysan", "yaxshimisan" kabi so'zlar bo'lishi mumkin.

Endi kichik yoshdagi bolalarni o'zaro salomlashish jarayoniga e'tibo qatatilsa, yuqoridagi ifodalar kuzatilmaydi. Ular qo'l ishtirokida ham, so'zlar bilan ham salomlashmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'z qarashlari, nigoh bilar salomlashadi. Ular bir-birlariga tikilib qarab, bir-birini kuzatishadi. Keyin gap-so'zsiz, xatti-harakatlarini moslashtirib o'yin bilan mashg'ul bo'lishadi. Salomlashishga oid imo-ishoralarning jinsiy farqi o'zbek milliy xususiyatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Erkaklar tanish-notanish bo'lishidan qat'i nazar o'zaro doim qo'l berib salomlashadi. Ayollar erkaklar bilan deyarli qo'l berib so'rashmaydi. Faqat yaqinlari bilan qo'l berib, yoki yelkasini qoqib salomlashishi mumkin. Urf-odat bo'yicha boshini pastga egib, so'z bilan salomlashadi. Shuningdek, yana o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshini egib salomlashadi.

Ayollar o'zaro salomlashganda yaqinlar quchoqlashib, o'pishib qo'rishadi. Ba'zilar bir-birlarini yelkasini qoqib yoki belini ushlab salomlashadi. Faqat ularda salomlashish nutqi ko'p bo'ladi. Unda kishining sog'lig'i, ishi, uyi, oila a'zolari batafsil so'raladi. Demak yuqorida aytib o'tilganidek, har bir odamning yosh darajasi, jinsi, mavqei, ijtimoiy-iqtisodiy holati kabilari asosida salomlashish imo-ishoralari turlicha bo'ladi. Masalan yangi kelinni oila a'zolari bilan salomlashishi, shogirdni ustoz bilan salomlashishi, bemorni do'xtir bilan salomlashishi kabilarni aytish mumkin.

O'zbek tilida u yoki bu imo-ishorani nomlaydigan erkin iboralar asosida paydo bo'lgan

juda ko‘p barqaror iboralar mavjud. Ular frazeologik birliklarga aylanib, odamning holatini, uning hayratini, befarqligini, xijolatini, noroziligini va boshqa his-tuyg‘ularini, shuningdek, turli harakatlarni ifodalaydi. Masalan: boshni pastga egish, boshni aylantirish, boshni ko‘tarish, qo‘lni ko‘tarish, qo‘lni yoyish, qo‘lni tushirish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish, barmoqni silkitib qo‘rqitish kabilar.

Noverbal muloqot - shaxs o‘zining "men"ini ifodalash, shaxslararo ta'sir va munosabatlarni tartibga solish, aloqa hamrohining qiyofasini yaratish va verbal xabarni aniqlashtirish vazifasini bajaradigan vositalardan biri bo‘lib imo-ishora tilini o‘rganish nafaqat shaxslararo munosabatlarda, balki professional sohada - muzokaralar, savdo, vositachilikda ham yordam beradi.

Jonli nutq aloqasi, nutq faoliyati uning barcha turlari va shakllarida (shu jumladan, paydo bo‘ladigan ichki nutqda) namoyon bo‘ladi. Fikrlash til va nutqning rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatadi. Til belgilari fikrlash jarayonlarida tobora kengayib o‘ziga xos samarali vositaga aylanishi mumkin. Va u universal "asboblar to‘plami", inson tafakkurining quroli bo‘ladi [3. B.330]. Noverbal signallar fikrlash jarayoniga bevosita aloqador. Noverbal signallardan xabardor bo‘lish suhbatdoshingizni yaxshiroq tushunishga, o‘zaro tushunishni yaxshilashga va pirovardida nizolarga yanada samaraliroq yechim topishga imkon beradi. Shunday qilib, tana tilini talqin qilish mahoratiga ega bo‘lish bizning muloqotimizni boyitib, yanada uyg‘un munosabatlarni yaratishga yordam beradigan qimmatli mahoratdir.

Xulosa qilib aytganda, psixolingvistik tahlil imo-ishoralarning muhim jihatini ifodalaydi. Bu nafaqat muloqotni, balki axborotni tushunish, qayta ishlash va uzatishni ham osonlashtiradi. Shuning uchun imo-ishoralarning ma'no-mazmunidan xabardor bo‘lish va e'tiborliroq yoki sinchkovroq bo‘lish foydadan holi bo‘lmaydi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedova M.X., Ruziboyeva N.K. Психолингвистические особенности жестикуляции в узбекских языках // Психология XXI столетия. – 16–18 марта 2025 г. – С. 9–13.
2. Axmedova M. Hozirgi zamon yoshlar nutqidagi jargonlar // O‘zMU xabarlar. – 2022. – № 1/9. – В. 255–259.
3. Axmedova M.X. Nutqiy faoliyatda fikr va til tizimlari // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – № 1. – В. 330–332.
4. Igebayeva F.A. Язык жестов в деловом общении // Актуальные вопросы профессиональной коммуникации в государственном и муниципальном управлении: сб. науч. ст. – Уфа: БАГСУ, 2010. – С. 72–76.
5. Labunskaya V.A. Невербальное поведение. – Ростов н/Д., 1986. – 250 с.
6. Piz A. Tana tili. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2015. – 4 bet.
7. Ruziboyeva N.K. Исследование психолингвистических параметров невербальной коммуникации на материале узбекского и французского языковых континуумов // Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2024. – № 9 (04). – С. 90–100.
8. Smirnova N.I. Сопоставительное описание элементов русской и английской кинетической коммуникации // Национально-культурная специфика речевого поведения. – М.: Наука, 1977. – С. 210–247.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008. – 203 bet.
10. Frolova M.M. Психология: учебное пособие для вузов. – М., 2008.
11. Akhmedova M.X. Psycholinguistic Features of Slang Vocabulary in the National Language // Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Vol. 7. – P. 205–208.
12. McNeill D. Hand and Mind: What Gestures Reveal about Thought. – Chicago: University of Chicago Press, 1992.